

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING BAHOLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Majidova Hilola Eshquvat qizi

Termiz davlat pedagogika institute maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. Baholash jarayonining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, formativ va summativ baholashning o'ziga xos jihatlari, baholash mezonlarini ishlab chiqish tamoyillari hamda pedagogik refleksiyaning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida baholash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va vositalar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Baholash kompetensiyasi, formativ baholash, summativ baholash, mezonli baholash, pedagogik refleksiya, kasbiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, ta'lim sifati, baholash mezonlari, diagnostik yondashuv.

Аннотация: В данной статье освещаются методические основы развития оценочной компетентности будущих учителей начальных классов. С научно-теоретической точки зрения проанализированы роль процесса оценивания в повышении качества образования, особенности формативного и суммативного оценивания, принципы разработки критериев оценивания, а также значение педагогической рефлексии. Кроме того, обоснованы эффективные методы и средства, способствующие формированию оценочной компетентности в высших педагогических образовательных учреждениях.

Ключевые слова: оценочная компетентность, формативное оценивание, суммативное оценивание, критериальное оценивание, педагогическая рефлексия, профессиональная компетентность, начальное образование, качество образования, критерии оценивания, диагностический подход.

Abstract: This article highlights the methodological foundations for developing assessment competence in future primary school teachers. The role of the assessment process in improving the quality of education, the specific features of formative and summative assessment, the principles of developing assessment criteria, and the importance of pedagogical reflection are analyzed from a scientific and theoretical perspective. Furthermore, effective methods and tools aimed at forming assessment competence in higher pedagogical education institutions are substantiated.

Keywords: assessment competence, formative assessment, summative assessment, criterion-based assessment, pedagogical reflection, professional competence, primary education, quality of education, assessment criteria, diagnostic approach.



Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari ichida baholash kompetensiyasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini adolatli, shaffof va mezonli baholay olishi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Baholash kompetensiyasi – bu o'qituvchining o'quv natijalarini aniqlash, tahlil qilish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va natijalarga asoslanib pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- baholashning maqsad va vazifalarini anglash;
- formativ va summativ baholashni farqlash;
- mezon va indikatorlar ishlab chiqish;
- refleksiya va tahlil qilish;
- baholash natijalaridan ta'limni takomillashtirishda foydalanish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida baholash jarayoni ayniqsa nozik pedagogik yondashuvni talab qiladi, chunki bu davrda o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasi shakllanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda baholash kompetensiyasini shakllantirish quyidagi metodik asoslar orqali amalga oshiriladi:

1. Nazariy tayyorgarlikni mustahkamlash

Talabalarga baholashning turlari, tamoyillari, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS kabi) hamda milliy baholash tizimi haqida chuqur bilim berish.

2. Amaliy mashg'ulotlar tashkil etish

Case-study, mikrodars, rolli o'yinlar orqali baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliy qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

3. Mezonli (kriterial) baholashni o'rgatish

Talabalarga aniq mezon va indikatorlar asosida baholash tizimini tuzish, rubrikalar yaratish bo'yicha topshiriqlar berish.

4. Refleksiv yondashuvni rivojlantirish

Talabalarining o'z faoliyatini tahlil qilishi, baholash jarayonidagi xatolarni aniqlashi va takomillashtirish choralarini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Onlayn test platformalari, elektron jurnal va diagnostik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy baholash tizimining ajralmas qismidir.

Baholash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

- Talabalarda adolatli va obyektiv baholash madaniyatini shakllantirish;
- Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash;
- Innovatsion metodlardan foydalanish;
- Doimiy monitoring va tahlilni yo'lga qo'yish.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida qabul qilingan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur yo'nalishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda: O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, yangi tahrirda) ta'lim sifatini nazorat qilish, baholash va monitoring qilishni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida belgilab berdi. "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" davlat dasturi (2020-yil) doirasida ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, shu jumladan elektron baholash tizimlarini joriy etish vazifasi qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4307-son qarori – "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifati, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish va baholash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mazkur hujjatlar va dasturlar ta'lim jarayonida baholashning zamonaviy yondashuvlarini keng joriy etish, diagnostika asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini mustahkamlashni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida baholash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'lim jarayonida baholash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar bayon etilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan P. Black va D. Wiliam (1998) o'z tadqiqotlarida formatif baholashning o'quvchilar rivojlanishiga ta'siri, baholashning ta'lim jarayonidagi motivatsion ahamiyati va shaxsiy yondashuv imkoniyatlarini ilmiy asoslab berganlar. B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan "taksonomiya nazariyasi" esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich aniqlashda asosiy nazariy-metodik manba hisoblanadi.

Rus pedagoglari orasida M.N. Skatkin, V.P. Onushkin va ularning izdoshlari ta'limda kriterial baholashning afzalliklari, o'quvchilarni faqat yakuniy natijaga qarab emas, balki butun ta'limiy faoliyat jarayonini hisobga olgan holda baholash zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Ularning fikricha, baholash nafaqat nazorat, balki rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi vosita bo'lishi kerak.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu yo'nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, P. Qodirov tomonidan boshlang'ich ta'limda baholash metodikasining nazariy asoslari yoritilib, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning solishtirma tahlili berilgan. N. To'xtayeva esa pedagogik diagnostika nazariyasi va amaliy jihatlarini tadqiq qilib, diagnostik baholash vositalarining o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyatini ko'rsatib bergan. B. Karimov o'z maqolalarida ta'limda

kriterial baholash tizimining afzalliklarini hamda o‘quvchilar bilimini adolatli baholash imkoniyatlarini asoslagan.

Yaqin yillarda chop etilgan xalqaro maqolalarda raqamli texnologiyalar asosidagi baholash vositalarining samaradorligi keng muhokama qilinmoqda. Masalan, onlayn test tizimlari, interaktiv diagnostik dasturlar va reyting platformalari orqali o‘quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish dinamikasini tezkor tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, baholashning nazariy va amaliy jihatlarini, diagnostik yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida ularni takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o‘rganishda bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot materiali. Tadqiqot obyekti sifatida Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari tanlab olindi. Ushbu talabalarining amaliy mashg‘ulotlari, pedagogik amaliyot jarayonlari hamda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi baholash kompetensiyasini shakllantirish uchun asosiy material bo‘lib xizmat qildi. Pedagogik kuzatuv – talabalar tomonidan o‘quvchilar bilimini baholash jarayonida qo‘llanilayotgan usullarni aniqlash uchun qo‘llanildi. Suhbat va anketalar – bo‘lajak o‘qituvchilarning baholashga oid qarashlari, bilim va ko‘nikmalarini o‘rganish maqsadida o‘tkazildi. Diagnostik testlar – talabalar baholash metodlari bo‘yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ishlab chiqildi. Taqqoslash va tahlil – an’anaviy baholash va zamonaviy formatif, summativ, kriterial yondashuvlarning samaradorligini solishtirishda qo‘llanildi.

Eksperiment-metodik yondashuv – baholash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar va treninglar tashkil qilinib, natijalari tahlil qilindi.

- Reyting tizimi asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlari;
- O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash uchun formatif va summativ baholash topshiriqlari;
- Raqamli diagnostik dasturlar (onlayn testlar, interaktiv baholash vositalari);
- Refleksiv tahlil jurnallari (talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilish uchun).

Metodologik asoslar. Tadqiqot pedagogik kompetensiyalar nazariyasi, zamonaviy baholash texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda diagnostik yondashuv nazariyalariga asoslangan holda olib borildi.

Natijada, metodlar yig‘indisi talabalarda baholash kompetensiyasining shakllanish bosqichlarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash kompetensiyalarini shakllantirish darajasi uch bosqichda o‘rganildi: boshlang‘ich holat, tajriba jarayoni, va yakuniy natijalar.

Boshlang‘ich holat tahlili. Pedagogik kuzatuv va diagnostik testlar orqali talabalar baholash kompetensiyasi darajasi aniqlanganda quyidagi holatlar kuzatildi:

- talabalar asosan an‘anaviy baholash (ball va 5 ballik tizim) usullaridan xabardor;
- zamonaviy baholash shakllari – formatif, summativ va kriterial yondashuvlar haqida nazariy bilimga ega, biroq amaliyotda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi;

- refleksiv tahlil ko‘nikmalari sust rivojlangan;
- diagnostik yondashuvni qo‘llash tajribasi deyarli mavjud emas.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, maxsus metodik mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar asosida talabalar baholash kompetensiyasida sezilarli ijobiy o‘rishga erishganlar. Umuman olganda, o‘tkazilgan metodik tadbirlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida baholash kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash kompetensiyasini rivojlantirish ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Mazkur kompetensiyani shakllantirish tizimli, metodik asoslangan va amaliyot bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshirilishi lozim. Natijada pedagoglar o‘quvchilarning individual rivojlanishini aniqlash, ta‘lim jarayonini takomillashtirish hamda natijaga yo‘naltirilgan ta‘limni samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.. Shunday qilib, maxsus metodik mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar asosida o‘tkazilgan tajribalar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar baholashning formatif, summativ va kriterial shakllarini samarali qo‘llashni o‘rganadilar. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishidagi oliy ta‘lim dasturlariga baholash metodikasi va pedagogik diagnostikaga oid alohida kurs yoki modul kiritilishi maqsadga muvofiq. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar uchun baholashning zamonaviy shakllarini (formatif, summativ, kriterial baholash) qo‘llashga doir topshiriqlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun refleksiv kundaliklar yuritish, o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi. Zamonaviy raqamli diagnostik dasturlar, onlayn test tizimlari va interaktiv baholash platformalaridan keng foydalanish orqali baholash jarayonining samaradorligi oshirilishi mumkin. Ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida baholash kompetensiyasi, uning metodik asoslari va diagnostik yondashuvlari bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etilishi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.** – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti.** – Toshkent, 2021.
4. Avliyakov N.X. **Pedagogik mahorat.** – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
5. Ishmuhammedov R.J., Abduqodirov A.A. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.** – Toshkent: Fan, 2013.
7. Egamberdiyeva N.M. **Pedagogik kompetentlik asoslari.** – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.
8. Black P., William D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education. – 1998. – Vol. 5(1). – P. 7–74.
9. Brookhart S.M. **How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading.** – Alexandria: ASCD, 2013.
10. Nitko A.J., Brookhart S.M. **Educational Assessment of Students.** – Boston: Pearson, 2011.
11. OECD. **PISA 2022 Assessment and Analytical Framework.** – Paris: OECD Publishing, 2023.